

“TASVIRIY SAN`AT TA`LIMI METODIKASINI O`RGATISH”

Zakirova Shaxloxon Akmalxon qizi

Qo`qon Davlat pedagogika instituti

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrasini o`qituvchisi

shaxlozokirova@.com

+998911540401

Tasviriy san`atning tarixiy, batal janridagi rangtasvir asarlari, adabiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin yashab o`tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollarini bilib oladilar. O`sha davrdagi binolar, o`simliklar, xayvonlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Ma`lumki, bolalar, tarixiy. batal, manzara, turmush, natyurmort, animal, afsonaviy janrlarda ishlangan rasmlarda tarixiy voqealar, jangu-jadallar, xalqlar hayoti, hayvonlar, shahar va tabiat manzaralari haqida ko`pgina bilimlarga ega bo`ladilar.

O`quvchilarni mantiqiy va abstrakt fikrlashga o`rgatishda tasavvur va xotirani, ijodkorlik va fantaziyani rivojlantirishda maktabda tasviriy san`atni oldiga tushadigan bironta ham o`quv predmeti yo`q. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida ijodiy fikrlashga o`rgatishda katta o`rinni egallaydigan fanlardan matematika ham bunday imkoniyatga ega emas. Xususan, matematika darslarida o`nta masalani bir yo`l yoki bir formula asosida echilsa, tasviriy san`at darslarida o`quvchilar bir masala (topshiriq) ni bir necha yo`l bilan echadilar, u so`zsiz bolalarni fikrlashga, ijodiy o`ylashga yo`naltiradi. Aytaylik, o`quvchi u yoki bu hayotiy yoki afsonaviy mavzularda kompozitsiya ishlash jarayonida, mavzu bilan bog`liq bo`lgan voqeani eslashga harakat qiladi. Bunda voqea qaysi davrda, qaerda yoki boshqa sayyoralardami, suv ostidami, tabiat qo`ynidami yoki uy ichidami, rasmda odamlar tasvirlanadimi yoki hayvonlarni, tasvirlanadigan mavjudodlarning tuzilishi, shakli, ranglari, o`lchovlari qanaqa bo`lishligi Haqida o`ylaydilar.

Eng muhimi, qog`oz yuzasida mazmun kompozitsion jihatdan qanday joylashtirilishidir. Shuningdek, tasvir variativlik, kombinatsiya, muqobillik va boshqalar asosida ishlanadi. Bolalar rasm ishlashda tasviriy san`atning nazariy asoslari-yorug`soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiyaning qonun va qoidalarini tasavvur qiladilar va qo`llaydilar. Ular o`z rasmlarini ijodiy, yangi, qaytarilmas mazmunda bo`lishligiga harakat qiladilar¹.

Jahonda tasviriy san`atni o`qitilishiga dastlabki haqida ma`lumotlar etarli bo`lmasada, biroq qadimgi Misr va Yunonistonda eramizdan avvalgi 3- asrlarga doir materiallar ham mavjud. Qadimgi Misrda tog` qoyalari o`yib ishlangan Haykallar, shuningdek rangtasvir asarlari o`zining yuksak badiiyligi va ishlanish texnikasi jihatidan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Shuni alohida qayd qilish lozimki, bunday san`at asarlari qanday shaklda bo`lishidan qat`iy nazar ularni maxsus maktablarsiz yaratib bo`lmaydi. Kishilar o`z tajribalarini keyingi

¹ <https://fayllar.org/fani-boyicha-v2.html?page=2>

avlodlarga turli yo`llar bilan ibtidoiy jamoa davridan boshlab o`tkazib kelganlar desak yanglishmagan bo`lamiz. Bunga eng qadimgi Misrda rasm chizishga o`rgatishga doir tarixiy manbalar guvohlik beradi².

Tasviriy san`atni o`qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug`ullanib kelganliklari ko`proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o`rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog`liq Holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma`lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlar ma`lum maydon yuzasini o`lchash va uni qog`ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirley oladigan bo`lishlari talab etilgan.

Rasm bolalarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bo`lgan. Masalan “ o ” harfini o`rgatish uchun oyoq rasmi, “ q ” harfini o`rgatish uchun qo`l rasmi chizdirilgan.

Bolalarni rasm chizishga o`rgatishda qo`lni erkin harakat qilishiga alohida e`tibor berilgan. Erkin, engil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qog`ozlarda bajarilgan.

Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to`garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o`quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o`rta ta`lim maktablarida haddan ziyod, bolalarni qiynab qo`yadigan, ortiqcha zo`riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to`g`ri emas. Tasviriy san`atdan beriladigan elementar bilim va malakalarga yarasha o`qitish metodlarini qo`llash zarur bo`ladi. Biroq tasviriy san`atdan oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlarida qo`llanilayotgan o`qitish metodlarining ayrim jihatlaridan foydalanish inkor etilmaydi. Shuningdek, ulardan to`laligicha umumiy o`rta ta`lim maktablarida foydalanish ham pedagogik jihatdan to`g`ri emas.

Tasviriy san`at darslarining o`ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san`atdagi go`zalliklarni ko`ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o`rgatish; estetik va badiiy didni o`stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san`atning nazariy asoslari (yorug`soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko`rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me`morchilik san`at asarlarini tushungan holda o`qiy olishga o`rgatish; san`atga nisbatan qiziqish uyg`otish, uni qadrlashga, sevishga o`rganadilar³.

Oliy va o`rta maxsus pedagogika o`quv yurtlarida ta`lim mazmuni kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo`lib turibdi. Bu vazifani hal etish hozirgi davr o`qituvchisini o`z fani doirasida chuqur va keng bilimli, shuningdek, ijodkor va izlanuvchan bo`lishini talab qiladi. Shu maqsadda boshlangich ta`lim va tarbiyaviy ish ta`lim yo`nalishida «Tasviriy san`at

² <https://fayllar.org/fani-boyicha-v2.html?page=3>

³ [https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/sanat/Tasviriy%20san%27at%20o%27qitish%20metodikasi%20\(S.Abdirasilov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/sanat/Tasviriy%20san%27at%20o%27qitish%20metodikasi%20(S.Abdirasilov).pdf)

o'qitish metodikasi» fani o'qitiladi. Bu fanning asosiy maqsadi talabalarni boshlangich sinflardagi «Tasviriy san'at» darslarini o'qitishga tayyorlash, tabiatdagi hamda tasviriy san'at asarlaridagi go'zallikni ko'ra bilish va idrok etish, badiiy did, ko'rish xotirasi, rangni sezish, fazoviy tasavvur, kuzatuvchanlik va badiiy ijodiy qobiliyatiami o'stirishdan iborat

Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari, ular: borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqloq mafkurasini amalga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga ega bo'ladilar.

Ma'lumki, maktabda o'qitishning xilma-xil metodlari qo'laniladi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarining joylashishi (o'quv, reja, dastur), ta'lim prinsiplari va yana (so'ngida), o'quv tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

«Metod» so'zi grekcha bo'lib, «Tadqiqot yo'li» «bilish usuli» ra'nosini anglatadi. Pedagogik o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarning bilim, mahorat va malakalarini egallashida, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'lagan ish usullari tushuniladi.

Metodika so'zi avvalo ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini majmui ma'nosini bildiradi, mazkur darslik umumta'lim maktablarining boshlangich sinflarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasining bir qator jihatlari ko'rib chiqiladi. Tasviriy san'at o'qitish metodlari deganda o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullari natijasida o'quv materiallarini yaxshi bilib olish darajasiga erishish va o'zlashtirish darajasini oshirilishi nazarda tutiladi.

Umumiy yo'nalishga qaratilgan ma'lum bir o'qitish metodlari va usullarining majmuasidan o'qitish tizimi tuziladi. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi pedagogik ilmiy fan sifatida tajribada sinalgan ishlarning nazariy qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika, asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U tasviriy san'atni o'rgatish qonun qoidalarini ta'riflab beradi, kelajak avlodni tarbiyalashning zamonaviy metodlarini belgilaydi. Amaliy metodika, ta'lim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini o'rganadi.

O'quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda bajarayotgan ishlari vositasi bilimga, malakaga, ijodiy ko'nikmaga ega bo'ldilar, o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, rag'batlantirish metodi asosida ilhomlantirish, yutuq va kamchiliklarini o'z vaqtida ko'rsatish, ularni o'z kuchiga ishonchini mustahkamlashida rahbarlik qiladi⁴.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Davronova, Nilufar. "GUESTS IN ASSEMBLY DRAWING." Open Access Repository 8.12 (2022): 431-433.
2. DAVRONOVA, NILUFAR. "SAN'AT TARIXIGA MUQADDIMA. TASVIRIY SAN'ATNING TUR VA JANRLARI." Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot 2.8 (2023): 53-55.
3. ДАВРОНОВА, Н. (2023). КАДИМГИ ЕВРОПА АНТИК САНАТИ. Замоновий дуньода илм-фан ва технологии, 2(8), 53-56.
4. Шеркузиева, Г. Ф., Ф. И. Саломова, and Ф. У. Юлдашева. "РЕЗУЛЬТАТЫ САНИТАРНО-ХИМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВОДЫ." (2023).
5. Абдукадилова, Л. К., Ф. У. Юлдашева, and М. Р. Мирсагатова. "Анализ Изучения Состояния Организации Здорового И Доброкачественного Питания В Детских Дошкольных Учреждениях." (2022).
6. Юлдашева, Фируза. "Совершенствование работы мобильных бригад в амбулаторно-поликлинических учреждениях системы железно-дорожного транспорта в условиях пандемии COVID-19 в Республике Узбекистан." Международная научно-практическая конференция «COVID-19 и другие актуальные инфекции Центральной Азии» Шымкент, 2022.
7. Юлдашева, Фируза. "«Совершенствование системы профилактических санитарно-противоэпидемических мероприятий на железнодорожном транспорте в условиях пандемии COVID-19." Материалы международной научно-практической онлайн конференции «Коронавирусная инфекция: диагностика, лечение профилактика», посвященной году «Поддержки молодёжи и укрепления здоровья населения» Фергана, 2021.
8. Юлдашева, Фируза. "Социально-гигиенические аспекты изучения здоровья детей, родившихся с большим весом." Актуальные вопросы общественного здоровья и здравоохранения на уровне субъекта Российской Федерации Материалы всероссийской научно-практической конференции (с международным участием) Иркутск 2021г. стр. 405-411, 2021.
9. Юлдашева, Фируза. "ORGANIZATION OF WORK UNIVERSITIES DURING THE COVID 19 PANDEMIC." International Conference, San Francisco, California, USA, 2020.
10. Юлдашева, Фируза. "SOCIO-HYGIENIC STUDY OF THE HEALTH OF CHILDREN BORN WITH HIGH WEIGHT." (2018).
11. Юлдашева, Фируза, et al. "Факторы риска развития злокачественных новообразований у детей." Сборник научных трудов Республиканской научно-практической конференции "Профилактическая медицина: Гигиеническая наука и практика" Ташкент–2015г. С 87-89, 2015.
12. Юлдашева, Фируза, and Шахром Каримбаев. "Совершенствование объективности оценки качества знаний студентов." (2014).